Axborot texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi o'rni: UZINFOCOM misolida	1218
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirishda soliqlarni samaradorligini oshirish.....	1225
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
ANDIJON VILOYATI BULOQBOSHI TUMANIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA UNI BOSHQARISH MASALALARI.....	1230
Dadajonova Martabaxon Maxmudovna, Abdullaev Bahodir Abdugaffarovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ УСЛУГ	1236
Шадиева Гулнора Мардиевна, Абдуллаева Дилафруз Бахриллоевна	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1241
Shirin Temirova	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1246
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1252
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1258
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1264
Muyassarzoda Fayziyeva	
XALQARO CHET EL SHARTNOMALARIDA BLOKCHEYN ASOSIDAGI AQLLI SHARTNOMALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: CHEGARA OSHA SAVDODA SHAFFOFLIK, XAVFSIZLIK VA AVTOMATLASHTIRILGAN IJRONI TAKOMILLASHTIRISH	1271
Kurolov Maksud Obitovich	
AN ANALYSIS OF THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN EXTERNAL DEBT SUSTAINABILITY AND THE DETERMINANTS OF ECONOMIC GROWTH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES.....	1280
Sitora Tojiqulova Sobirjon qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1289
Буранбаева Шоира Рустамовна	
AN'ANAVIY VA INNOVATSION YEM ISHLAB CHIQRARISH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY TAQQOSLANISHI: SIRDARYO VILOYATI TAJRIBASI.....	1295
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
ANOR YETISHTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIK TUSHUNCHASI VA BAHOLASH MEZONLARI	1301
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI	1305
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TA'LIM XIZMATLARI MARKETINGINING INNOVATSION MODELI	1310
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
AHOLINING BANK TIZIMIGA ISHONCHI VA CHAKANA BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHI.....	1317
Umarova Lola Erkinovna	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	1322
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING MOLIVAVIY MODELII	1330
Allayarov Suxrob Rustamovich	
TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1336
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
YANGI TIRSAK KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQUARISHGA JORIY QILISHDAN OLINADIGAN IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH.....	1342
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1346
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING STATISTIK BAHOLANISHI VA PROGNOZLASH USULLARI.....	1354
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
АНАЛИЗ ПРАКТИКИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРАРНОЙ СФЕРЫ В РЕГИОНАХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН	1358
Элов Дилшод Абдужаббарович	
HUDUDLAR KESIMIDA IJTIMOY-DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING OLIY TA'LIM TIZIMINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	1364
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI.....	1369
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINI SEGMENTLASHNING NAZARIY JIHATLARI VA AHAMIYATI	1374
Djurayev Bekzod	
MOLIVAVIY HISOBOT AUDITINING TASHKILIY MASALALARI	1382
Saidova Sevara Abdumumin qizi	



MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINING TASHKILIIY MASALALARI

Saidova Sevara Abdimumin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sevarayus96@mail.ru

ORCID: 0009-0006-2683-9332

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot auditini tashkil etish bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Maqolada moliyaviy hisobot auditini tadqiq etishning dolzarbligi, mazkur mavzuni o'rganilganlik darajasi, moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish yo'nalishlari va mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirilgan

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot audit, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot standartlari, firibgarlik, moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish, moliyaviy hisobotda xato va kamchiliklar, moliyaviy hisobot ishonchligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar.

Abstract: This article describes the results of research on the organization of financial reporting audits in Uzbekistan based on international standards. In the article, the relevance of the research of the financial statement audit, the level of study of this subject, the directions of organization of the financial statement audit based on international standards and practical recommendations for improving this process are formulated.

Key words: Financial statement audit, international auditing standards, international financial reporting standards, financial reporting standards, fraud, misstatement of financial statements, errors and omissions in financial statements, reliability of financial statements, users of financial statements.

Аннотация: В данной статье описаны результаты исследования организации аудита финансовой отчетности в Узбекистане на основе международных стандартов. В статье сформулированы актуальность исследования аудита финансовой отчетности, уровень изученности данной темы, направления организации аудита финансовой отчетности на основе международных стандартов и практические рекомендации по совершенствованию этого процесса.

Ключевые слова: Аудит финансовой отчетности, международные стандарты аудита, международные стандарты финансовой отчетности, стандарты финансовой отчетности, мошенничество, искажение финансовой отчетности, ошибки и упущения в финансовой отчетности, достоверность финансовой отчетности, пользователи финансовой отчетности.

KIRISH

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son¹ qaroriga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda MHXS) asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishlari va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari belgilab qo'yilgan. Biroq mazkur sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, MHXS asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish va ular auditini o'tkazish bo'yicha e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Mazkur soha bo'yicha audit tizimi oldidagi o'z yechimini kutayotgan masalalar shundan iboratki, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot qanday tartibda auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi va buni amalga oshirish uchun auditorlar qanday malaka talablariga javob berishi lozim kabi jihatlariga e'tibor qaratish talab etilmoqda. O'z navbatida O'zbekiston auditorlik amaliyotida 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasiga muvofiq "auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir auditning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda AXS) talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlariga asos bo'lgan qonunchilik

¹ <https://lex.uz/docs/-4746047>



hujjatlari normalari haqidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'ektning so'roviga binoan taqdim etish" majburiyati hamda mazkur qonunning 33-moddasiga muvofiq auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari tarkibiga "buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish" xizmati kiritildi. Ta'kidlash joizki, ushbu masalaga Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etishning me'yoriy-huquqiy mezonlari belgilab berilgan edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobot auditi jarayoning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga A.Arens, Дж.Лоббeklarni kiritish mumkin [1]. Mavzuning ayrim jihatlari MDH mamlakatlarining iqtisodchi-olimlari N.P.Barishnikov, A.A.Terexov va A.D.Sheremetlar tomonidan o'rganilgan [2].

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlarning ahamiyati masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida muhim e'tibor qaratilgan. Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.Tashnazarovning fikricha, hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida uyg'unligiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masaladir [3].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.Z.Avlokulovning fikricha, xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tashkilotni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, kompaniyalar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aksiyadorlar oldidagi hisobdorligi, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarining joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi [4].

Shuningdek respublika iqtisodchi olimlari tomonidan esa, ushbu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, e'lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o'rganilgan. Jumladan N.Sh.Xajimuratov, B.Q.Hamdov va I.I.Melievlar tomonidan moliyaviy hisobot auditining nazariy hamda uslubiy asoslarini ayrim jihatlari o'rganilgan [5].

Iqtisodchi Yusuf Shaxvanning ta'kidlashicha, "moliyaviy hisobotning ishonchligi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonchli tayyorlangan hisobotlarga taalluqli hisoblanadi" [6].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo'lsada, biroq xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot auditini amalga oshirish masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti va yaxlit tizim sifatida o'rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish va ilmiy-tadqiqot vazifalarini belgilashni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foyalanildi.


Tahlil va natijalar. Bizningcha, hozirgi davr hisob va audit amaliyotida MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etish va ularni qo'llanilmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolar, moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirishning uslubiy masalalarini o'rganish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularni auditning xalqaro me'yorlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish masalalarini o'rganilmasligi hisob tizimining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z muddatida bajarilishiga salbiy ta'sir etadi.

Fikrimizcha, MHXS va AXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda ular auditini amalga oshirilishini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va auditorlik tashkilotlari faoliyati uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi. Hisob va audit tizimida xalqaro standartlardan foydalanish auditorlardan xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish uslubiyatini to'liq o'zlashtirishni talab etib, auditor moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish va MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish kabi ikki turdagi asosiy xizmatni amalga oshirishi bugungi davr talabi hisoblanadi. Qolaversa Prezidentning PQ-4611-son qarorini qabul qilinishi, auditor bir paytning o'zida ikki turdagi xizmatlarni ya'ni auditorlik tekshiruvini amalga oshirish xizmati va milliy qonunchilikka muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotni moliyaviy MHXS talablariga moslashtirish (transformatsiya) xizmatiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu esa auditorlardan MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash va uning auditi jarayoni bo'yicha xalqaro standartlar talablarini to'liq o'zlashtirishni talab etmoqda.

Xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar auditi jarayonlarida «Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot», «Foyda va zararlar hamda boshqa umulashgan daromad to'g'risidagi hisobot», «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot» va «Kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot» shakllari



hamda moliyaviy hisobotga izohlar nomli hisobot ilovalari ko'rsatkichlarining ishonchliligi hamda ularni xalqaro standartlar qoidalarini asosida tayyorlanganligi o'rganiladi. Shuningdek, bugungi kunda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida nizom"ga muvofiq xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar ishonchliligi quyidagi auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'rganiladi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy hisobot auditida jarayonlarida qo'llaniladigan xalqaro standartlar²

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, auditorlik tekshiruvlarining xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda qo'llaniladigan asosiy standartlardir. Ular auditorga moliyaviy hisobotlarning haqiqatga to'g'ri va haqqoniy aks ettirilganligi borasida xulosa berish uchun asos bo'ladi. Yuqoridagilar bilan birgalikda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot auditida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son [buyrug'i](#)da belgilangan shakl va mazmunda tayyorlanganligi hamda hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmasdan taqdim etilganligi o'rganiladi.

Auditor moliyaviy hisobot auditida jarayonida barcha auditorlik amallari to'liq bajarilishiga qaramasdan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini buzib ko'rsatish mavjud bo'lishi mumkin. Tekshirilayotgan subyekt faoliyatiga bevosita aloqador bo'lmasa, mazkur me'yorlarga rioya etmaslik holatlari shunchalik kam kuzatiladi va aksincha. Jumladan hozirgi paytda respublika moliyaviy hisobot auditida amaliyotida quyidagi normativ-huquqiy hujjatlardan keng foydalanilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston respublikasida moliyaviy hisobot auditining normativ-huquqiy asoslari³

№	Me'yoriy-huquqiy hujjat nomi	Normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sana
1	Auditorlik faoliyati to'g'risidagi O'RQ-677-son qonuni	2021-yil 25-fevral
2	Auditning xalqaro standartlari	
3	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-son qarori	2022-yil 11-aprel
4	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "Auditorning malaka sertifikatini malaka imtihonini topshirmasdan berish va muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladigan buxgalterlarning xalqaro sertifikatlarini ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 56-son buyrug'i	2021-yil 29-sentyabr
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5210-son qarori	2021-yil 4-avgust

² Muallif tomonidan tayyorlangan

³ Muallif tomonidan tayyorlangan



6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-son qarori	2021-yil 5-may
7	O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining 2018-yil 14-noyabrda "Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini" nomli 3101-son qarori 1-ilovasi	2018-yil 15-dekabr
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori	2018-yil 19-sentyabr
9	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumot shaklini to'ldirish Qoidalarini" nomli 2515-son buyrug'i 2-ilovasi	2013-yil 9-oktyabr
10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 538-son qarori	2022-yil 28-sentyabr

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotidan ko'rinadiki, O'zbekistonda auditorlik faoliyati qonuniy va tartibga solingan tizim asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu hujjatlar auditorlik faoliyatining huquqiy asosini belgilashdan tortib, auditorlarni sertifikatlash, ularning malakasini oshirish, ish sifatini nazorat qilish va noqonuniy operatsiyalarga qarshi kurashish kabi bir qator muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Jadvalda keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar auditorlik faoliyatini huquqiy, tashkiliy va funksional jihatdan tartibga solishga qaratilgan tizimli yondashuvni aks ettiradi. Bu hujjatlar majmuasi auditorlik kasbining mustaqil, professional va ishonchli ekanligini ta'minlashga xizmat qiladi, shu bilan birga korxonalarning moliyaviy hisobotlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Auditning dastlabki bosqichida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllarida mazmunan quyidagi farqli jihatlar e'tiborga olinganligi o'rganilishi maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval. Xalqaro va milliy standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditida o'rganiladigan ko'rsatkichlar tahlili⁴

MHXS bo'yicha	BHMS bo'yicha
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi
(a) asosiy vositalar; (b) investitsion mulk; (s) nomoddiy aktivlar; (g) moliyaviy aktivlar ((d), (z) va (b) lar bo'yicha ko'rsatilgan summalaridan tashqari); (d) ulushga asosan hisobga olish usuli bo'yicha hisobga olingan investitsiyalar; (e) biologik aktivlar; (j) zaxiralar; (z) savdo bo'yicha va boshqa debitorlik qarzlari; (i) pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari;	15-BHMS - «Buxgalteriya balansi» Aloxida modda sifatida milliy buxgalteriya balansida quyidagi moddalar yuq: - investitsion mulk - moliyaviy aktivlar (uzoq muddatli investitsiyalar) - biologik aktivlar (i.ch zaxiralarini ichida kelishi mumkin)
5-MHXS «Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat»ga muvofiq sotishga mo'ljallangan aktivlar va ularni hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan aktivlar jami; savdo bo'yicha va boshqa debitorlik qarzlari; (l) rezervlar; (m) moliyaviy majburiyatlar ((k) va (l) lar bo'yicha ko'rsatilgan summalaridan tashqari); (n) 12-BHXS «Foyda solig'i»da ta'riflanganidek, joriy soliqlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar;	- «Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat»ga tegishli aktivlar va moliyaviy majburiyatlar alohida hisobga olish nazarda tutilmagan

4 Muallif tomonidan tayyorlangan



(o) 12-BHXS bo'yicha muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va soliq aktivlari; (p) 5-MHXSga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan majburiyatlari; (r) kapital tarkibida aks ettirilgan, nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar; (s) bosh tashkilotning mulk egalari tegishli bo'lgan, chiqarilgan kapital va kapitaldagi rezervlar.	- muddati uzaytirilgan soliq aktivlari tushunchasi mavjud bo'lsa ham balansda alohida satr mavjud emas (zararni keyingi davrga ko'chirish) - kapital tarkibidagi nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar (mavjud emas)
Foyda va zararlar, boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
Xarajatlar, moliyaviy natijalarning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish maqsadida, tez-tez takrorlanishi, foyda yoki zarar keltirish potentsiali va ularni oldindan bilish mumkinligiga qarab farqlanishi mumkin bo'lgan ikkilamchi turkumlarga tasniflanadi. Bunday tahlil ikkita shakldan birida ta'minlanadi.	
Tahlilning birinchi shakli «xarajatning xususiyati» bo'yicha tasniflash usulidir - Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromadlar - Boshqa daromadlar Tayyor maxsulotlar zaxiralaridagi va tugallanmagan ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar - Foydalaniladigan TMZlar - Xodimlarga haq to'lash - Eskirish va amortizatsiya - Boshqa xarajatlar - Jami xarajatlar - Soliq to'laguncha foyda	
Tahlilning ikkinchi shakli «xarajatlarni funksiyasi» bo'yicha tasniflash usulidir - Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromadlar - Sotish tannarxi - Yalpi foyda - Sotish xarajatlari - Ma'muriy xarajatlar - Boshqa xarajatlar - Soliq to'lagunga qadar foyda	
Kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot
Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: (a) davr uchun jami umumlashgan daromadni, bunda ushbu daromadning bosh tashkilot egalari va nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar egalari tegishli jami summalarini alohida ko'rsatgan holda; (b) kapitalning har bir qismi uchun, 8 son BHXSga muvofiq tan olingan retrospektiv qo'llashning yoki retrospektiv qayta hisoblashning ta'sirlari;	BHMS 14 «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot». Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo'lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan xolati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi
(v) kapitalning har bir qismi uchun, davr boshidagi va oxiridagi balans qiymati o'rtasidagi solishtirma, bunda quyidagilardan yuzaga keladigan o'zgarishlarni alohida ochib bergan holda: (i) foyda yoki zarar; (ii) boshqa umumlashgan daromadlar; (iii) mulk egalari bilan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi operatsiyalar, bunda mulk egalari tomonidan qilingan qo'yilmalarni va ularga taqsimlangan summalarini hamda nazoratni yo'qotishga olib kelmaydigan shu'ba tadbirkorlik sub'ektlaridagi egalik ulushidagi o'zgarishlarni alohida ko'rsatgan holda.	Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xalqaro hisob standartlari milliy standartlarga nisbatan moliyaviy hisobot tarkibiga nisbatan ko'proq batafsil va murakkabroq yondashuvini ko'rsatadi. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари nafaqat an'anaviy hisobot shakllarini, balki ulardagi ma'lumotlarning taqdim etilishi bo'yicha ham batafsil talablarni belgilaydi. Bu esa investorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga korxona faoliyati haqida yanada shaffof va to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.



Ma'lumki, auditorlik tashkilotlari nafaqat moliyaviy hisobot auditi bilan shug'ullanishi, balki amaldagi qonunning 31-moddasiga muvofiq "Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlari turidagi auditorlik xizmatlarini" ko'rsatishlari mumkin [7]. Mazkur auditorlik xizmatlarini tartibga solish masalalari 800-son "Maxsus masalalar – maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar auditi" va 805-sonli "Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotning maxsus elementlari, schyotlari yoki moddalari auditi" nomli auditning xalqaro standartlari me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ko'rinadiki, korxona moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar tomonidan korxona faoliyati to'g'risidagi maxsus masalalar bo'yicha moliyaviy hisobot yoki korxona faoliyatidagi ularni qiziqtirgan, manfaatli masalalar bo'yicha hisobot (axborot) talab etiladi. Mazkur maxsus masalalar bo'yicha ishonchli va kafolatli axborot bilan ta'minlovchi vakolatli tashkilot auditorlik tashkilotlari hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot auditi amaliyotida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o'rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holati hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik deganda moliyaviy hisobotni atayin buzib ko'rsatish harakatlarini anglatuvchi yuridik tushuncha tushunilsa, xato deganda esa moliyaviy hisobotdagi atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish harakatlari tushuniladi. Demak auditda firibgarlikni aniqlash (fosh etish) xatoni aniqlash jarayonidan muhimroq sanaladi. Fikrimizcha, moliyaviy hisobot auditida firibgarlik va manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish, oldini olish va yo'qotishning samarali choralari quyidagilar hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. Moliyaviy hisobot auditida firibgarlik va xatolar riskini kamaytirish, oldini olish yoki yo'qotishning samarali choralari⁵

№	Firibgarlik va manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish, oldini olish yoki yo'qotishning samarali choralari
1	Tasodifiy tekshiruvlar tashkil etish. Korxona tarkibiy bo'linmalarini xabardor qilmasdan ular faoliyatini o'rganish
2	Mijozlar oqimini video tahlil qilish (sun'iy intellekt imkoniyatlari asosida nazorat va tahlil qilish). Korxona binolariga tashrif buyurgan va chiqib ketgan mijozlar soni, ularni binoda bo'lgan vaqtini hisoblash, moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash
3	Moliyaviy hisobot davri yakunida va amaldagi buxgalteriya hisobi standartlarida belgilangan muddatlarda inventarizatsiya o'tkazish
4	Ichki audit tekshiruvlarini turli yondashuvlar asosida tashkil etish. Mijozlar, xaridor va buyurtmachilar, mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan telefon, elektron pochta va boshqa masofaviy axboroto vositalari bilan axborot almashinuvni yo'lga qo'yish, narx va chegirmalarni tekshirish, moddiy javobgar shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri so'rovlar o'tkazish)
5	Buxgalteriya schyotlariga kiritilgan tuzatishlar bo'yicha batafsil nazorat o'tkazib borish. Korxona moliyaviy hisobot yili yakuni va choraklarda noodatiy nazorat jarayonlarini tashkil etish
6	Korxonaning affillangan shaxslari majburiyat va javobgarliklari hamda mulklari holati hamda qiymati bilan tanishish
7	Korxonaning moliyaviy hisobot davri boshidagi buxgalteriya schyotlaridagi qoldiqlarni o'rganish maqsadida tahliliy amallar bajarish
8	Kompyuter ma'lumotlari to'liqligini tekshiring va muomalalarni tasdiqlovchi hujjatlar raqamlashtirilganligini o'rganish
9	Korxona mas'ul xodimlari yashash holati(turmush darajasi)dagi o'zgarishlar(asosiy ish haqining miqdor darajasi, xodimlar ko'chmas mulklari miqdori, xodimlarning ko'chmas mulklarni sotib olish qobiliyati darajasi)ni tahlil qilish
10	Tovar-moddiy zahiralalar bo'yicha og'ishishlarni o'rganish. Inventarizatsiya o'tkazish zarurati va muddatlarini aniqlashtirish
11	Korxona tovar belgilaridan foydalanish holatini o'rganish
12	Korxona zahiralarning avvalgi davrlardagi miqdori va ishlab chiqarish sifatleri bilan solishtirish
13	Korxona omborlarini avtomatlashtirish (raqamlashtirish)

Fikrimizcha, xalqaro moliyaviy hisobot auditi amaliyotida firibgarlik, moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish va xato kabi atamalardan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o'rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holati hisoblanadi. Firibgarlik harakatlari oldindan rejalashtirilgan harakat sanalib, korxonada faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar hamda korxona faoliyatiga aloqador yoki manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davr hisob va audit amaliyotida MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etish va ularni qo'llanilmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolar, moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirishning uslubiy masalalarini o'rganish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularni auditning xalqaro me'yorlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish masalalarini o'rganilmasligi hisob tizimining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z muddatida bajarilishiga salbiy ta'sir etadi.

Auditor tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisoboti ishonchligini o'rganishdan avval, tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisobotini buxgalteriya hisobi usul va tamoyillariga muvofiq amalga oshirilayotganligi, tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy ko'rsatkichlari moliyaviy hisobotda boshlang'ich qiymat, xarid qiymati, sotish qiymati, diskontlangan qiymat va balans qiymatlarida to'g'ri aks ettirilganligi hamda moliyaviy hisobotni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va buxgalteriya hisobi standartlari me'yorlariga muvofiq tuzilganligini o'rganishi maqsadga muvofiq.

Firibgarlik va xatolardan xoli bo'lgan ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan hisobot ishonchli hisobotdir. Korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini baholash esa auditorning asosiy majburiyati hisoblanadi. Bu esa auditoridan korxona moliyaviy hisobotida aniqlangan xato va firibgarlik holatlarining mazmunini, shakllanish sabablarini, firibgarlik va xatoning moliyaviy hisobotga ta'sirini hamda aniqlangan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holatlarini bartaraf etish yoki ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Moliyaviy hisobot auditi jarayonida auditorni amaldagi Qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlariga rioya etish va o'rganilayotgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini baholashda mazkur me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilganligini baholashi talab etiladi. Auditorlik tekshiruvda tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisobotiga amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablarining konseptual asos sifatida ta'siri jiddiy bo'lishi yoki auditorni tekshiruvni amalga oshirishda amaldagi mavjud qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar me'yorlariga muvofiq harakat qilishi talab etiladi. Moliyaviy hisobot auditi jarayonida auditor moliyaviy hisobotni shakllantirish bo'yicha konseptual asos talablariga rioya etilganligiga asosiy e'tibor qaratishi zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugunga qadar moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni aniqlash va bu haqida auditorlik xulosasi(fikr)ini shakllantirish tartibi yaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv adabiyotlari va tadqiqotlarda etarlicha yoritilmaganligi (birgina moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar nomli milliy standartdan boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilmagan)ligi ma'lum bo'ldi. O'z navbatida majburiy audit yakunida o'rganilayotgan hisobot davri tugagan va auditorlik xulosasi imzoladigan sanagacha yoki xulosa rasmiylashtirilgandan keyingi davrda aniqlangan o'rganilayotgan hisobot davriga aloqador bo'lgan muomalalar to'g'risidagi axborotlar ishonchligini baholash auditor majburiyatlaridan sanaladi yoki ushbu masalani auditorlar tomonidan o'rganilmasligi moliyaviy hisobot ishonchligiga jiddiy ta'sir etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5307886>.
2. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с; Адамс Р. Основы аудита. Пер. с англ./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015. -398 с.;
3. Барышников Н.П. Организационная и методика проведения общего аудита. 4-е изд. перер. и доп. - М.: Финансы, 1998. -528с; Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. - М.: Финансы и статистика, 2001. -560 с; Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2009. - 456 с.;
4. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 74 b.;
5. Avlokulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini aks ettirish xususiyatlari. // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.;
6. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish: DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2021.-66 b.; Hamdamov B.Q. O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent - 2007. -33 b.; Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish, (PhD) dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2019 y -63 b.;
7. Shahwan Yusuf. Qualitative characteristics of financial reporting: A historical perspective. Journal of applied accounting research. 9(3), 2008. p 192-202.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
